

“QUTADG‘U BILIG” ASARINING XI-XIII ASR ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI

Hamroyeva Orzigul Jalolovna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

filologiya fanlari doktori, professor

arguvon87@mail.ru

Annotatsiya. XI-XIII asrlar adabiyotshunosligi turkiy adabiyotshunoslik tarixining muhim bosqichi sifatida ilmiy-nazariy qarashlarining shakllanishining muhim davri sifatida e‘tiborga molik. Insoniyat badiiy tafakkurining shakllanishi va ma‘lum poetik qoliplarga ega bo‘lish bosqichi qadimgi turkiy manbalarda aks etgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asari turkiy adabiyotning dastlabki yozma dostoni – badiiy yuksak syujet tizimiga ega asar sifatida baholanishi bilan birga asarda muallifning adabiy-estetik qarashlari ask etishi bilan xarakterli. “Qutadg‘u bilik” asaridagi adabiy-estetik qarashlar orqali XI asrlar adabiy muhiti haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. Shu jihatdan “Qutadg‘u bilik” asarining adabiyotshunoslik yo‘nalishida tadqiq etish zarurati tug‘iladi. Maqolada asarning ayni jihatlari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: doston, adabiy-estetik qarash, janr, so‘z, she‘r, nasr, poetika.

Annotation. Literary studies of the 11th-13th centuries are notable as an important stage in the history of Turkish literary studies, as an important period of the formation of scientific and theoretical views. The stage of the formation of human artistic thinking and the acquisition of certain poetic patterns is reflected in ancient Turkic sources. Yusuf Hos Hajib's "Kutadgu bilik" is considered the first written epic of Turkish literature - a work with a high artistic plot system, and is characterized by the presence of the author's literary and aesthetic views in the work. Through the literary and aesthetic views in the work "Kutadgu bilik", one can obtain sufficient information about the literary environment of the 11th centuries. In this regard, there is a need to study the work "Kutadgu bilik" in the direction of literary studies. The article examines these aspects of the work.

Keywords: epic, literary-aesthetic perspective, genre, word, poem, prose, poetics.

Аннотация. Литературоведение XI-XIII веков примечательно как важный этап в истории тюркской литературы, как важный период формирования научно-теоретических взглядов. Этап формирования человеческого художественного мышления и усвоения определенных поэтических моделей отражен в древнетюркских источниках. «Кутадгу билик» Юсуфа Хос Хаджиба считается первым письменным эпосом тюркской литературы — произведением с высокой художественной сюжетной системой, характеризующимся наличием в произведении литературно-эстетических взглядов автора. Через литературно-эстетические взгляды в произведении «Кутадгу билик» можно получить достаточно информации о литературной среде XI веков. В связи с этим возникает необходимость изучения произведения «Кутадгу билик» в литературоведческом направлении. В статье рассматриваются эти аспекты произведения.

Ключевые слова: эпос, литературно-эстетическая перспектива, жанр, слово, стихотворение, проза, поэтика.

Kirish. XI-XIII asr manbalari va ularning tarkibiy tuzilishi adabiyotshunoslik masalalarining Sharq madaniyati, odobi, badiiy tafakkuri negizida shakllandi. Mifik tafakkur, insonning o‘z-o‘zini anglash, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarining reallashuvi bosqichidan so‘ng adabiy-estetik tafakkurining ma‘lum soha doirasida aniqlashib, takomillashib borishi natijasi adabiy, ilmiy asarlari yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Bu davr manbalari va manbalar tarkibi adabiyotshunoslik masalalarini yoritish jihatidan ikkiga bo‘linadi:

1. Badiiy so‘z tabiati orqali badiiy adabiyotning mohiyatini tushuntiruvchi asarlar;

2. Sof ilmiy-nazariy qarashlar aks etgan manbalar.

Bu ikki turdagi asarlar yaratilish maqsadiga ko'ra ikki yo'nalishni asos qilib olgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'ati-t-turk", Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomiy Aruziyning "Chahor maqola" asarlarida sof adabiyotshunoslikka oid nazariy masalalar tadqiq etilsa, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari didaktik yo'nalishdagi manba bo'lgani bois unda badiiy so'zning vazifasi, ta'sir kuchi, til odobi masalasi kesimida o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. XI-XIII asrga kelib adabiy-tanqidiy qarashlar tadqiqi maxsus janrlarda ifoda etila boshlandi, risolalar, tazkiralalar yaratila boshlandi. Nizomiy Aruziyning "Chahor maqola"si ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Sharq poetika ilmiga oid maxsus ilmiy risolalar arab adabiyoti, arab adabiyoti ta'sirida fors adabiyotida keyinchalik turkiy adabiyotda ham yaratila boshlandi. Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom", Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r", Abu Hilol Askariyning "Kitob us-sina'tayn", Umar Rodiyoniyning "Tarjimon ul-balog'a", Shamsiddin Qays Roziyning "Al-Mo'jam", Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" kabi manbalar turkiy poetika ilmi manbalari uchun asos bo'lgan[1, 65].

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida badiiy so'z tabiati. Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ramziy obraz va timsollar asosida til odobi, so'zlash qobiliyati, so'zning badiiy-estetik imkoniyatlari borasida fikrlar keltirilishi bilan o'zbek adabiyotshunosligining muhim manbalari sirasiga kiradi. Asarda ilmning xosiyati, bilimning baxt keltirishi, til odobi doston syujet kesimining asosini tashkil etuvchi 4 ramziy obraz savol-javobi fonida beriladi. Dostonning "Yangluq ag'irligin tanurlayur bilig birla", "Til erdamin asg'in munlarin so'zlayur", "Kitob izisi o'zinga uzr ayur", "Oyto'ldining Kuntug'dining savoliga javob tariqasida", "Ayto'ldi javabi eligka" sarlavhali qismlari ostida keltirilgan.

Muhokama. Yusuf Xos Hojib Yaratgan tomonidan insonga berilgan fazilatlarini, sifatlarini keltirar ekan, ularning asosi sifatida so'zlash imkoni, ravon nutq berganini ta'kidlaydi:

Ko'ngil berdi ham ma yuritti tilig,

O'vut berdi qilq ham qilinchi silig. [4, 84].

(Unga ko'ngil berdi, tili yo'riq (ravon) qildi,

Andisha, xulq hamda go'zal fe'l ato qildi.)

Bilim – insonni har qanday jaholot va mushkulotdan qutqaruvchi xaloskor sanaladi. Asarda bilim tufayli insonning ulug'likka erishishi, o'qish tufayli tugunlar yechilishi bayon qilinib, xalqda bu borada "bir so'z" – maqol borligi aytiladi:

Uqush qayda bo'lsa uluqluq bo'lur,

Bilig kimda bo'lsa, bezugluk alir.

(Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,

Bilim kimda bo'lsa, buyuklik oladi.) [4, 84].

Yusuf Xos Hojib dostonning “Kitab izisi o‘zinga uzr ayur” qismida badiiy so‘z tabiati xususida asosli fikrlarni keltiradi. Muallif “Qutadg‘u bilig” asari uning so‘zlari ekanligini, u o‘tganidan keyin avlodlarga qoluvchi asosiy merosi shu so‘z – kitob ekanligini ta’kidlash orqali asar – ijodkorning keyingi hayoti ekanligiga ishora qiladi.

Tilakim so‘z erdi, ey bilga bo‘gu
Kezin keldachika o‘zum so‘zlagu.
(*Tilagim so‘z edi, ey bilag‘on dono,
Keyin keluvchilar uchun o‘zim aytadigan so‘zlar edi*) [4, 90].

Yusuf Xos Hojib bu bobda so‘zni ishlatish, so‘zga yuklanadigan yuk, so‘zning vazifasi, so‘zchi holi borasida o‘ziga nasihat qolipi vositasida atrofda qiladigan murojaat qiladi. Alloh birgina so‘z bilan Olamni yaratgani, insonga zabon berilgani, insonning ayni fazilati bilan boshqa jonzotlardan ustun qo‘yilishi go‘zal badiiy ifodalar orqali asoslanadi:

Yashil ko‘kdin indi yag‘iz erka so‘z,
So‘zi birla yangluq ag‘ir qildi o‘z.
(*So‘z bo‘z yerga yashil ko‘kdan tushdi,
So‘zi tufayli inson o‘zini ulug‘ qildi*) [4, 90]

Dostonda e’tibor qaratilgan muhim masalalardan biri – til va tafakkur konsepsiyasi. Tafakkurda mavjud bilimlar til orqali namoyon bo‘lmasa, unday bilimning, tafakkurning hech kimga foydasi tegmaydi. Yoki aksincha, tafakkurda hech narsa(bilim) bo‘lmasa-yu, so‘zlar ortiqcha so‘zlanaversa, bunday so‘zlar insonga, so‘zlovchi va tinglovchiga zarar yetkazadi:

Biliglig chiqar masa bilgin tilin,
Yarutmaz anin bilgi yatsa yilin.
(*Bilimli bilimni tili orqali chiqar masa,
Uning bilimi yillab yotsa ham, yoritmaydi*) [4, 90].

“Qutadg‘u bilig”da ezgu so‘z tamoyili yetakchi mavzulardan biri sanaladi. Yusuf Xos Hojib chin insoniylikning belgisi, insonning ko‘rki so‘z ekanligini ezgu so‘zli kishilar har zamonda kerakli ekanligini asoslab, shunday kishilarni madh qilishga chorlaydi. Dostonda ezgu so‘z inson yuzini nurlantiruvchi vositaga qiyoslanib, fikrning isboti sifatida turkiylarning mashhur maqoli keltiriladi:

Masal keldi turkcha munar menzatur
Ani so‘zladim, men munu yanzatur.
Uqush ko‘rki so‘z - ul bu til ko‘rki so‘z,
Kishi ko‘rki yuz - ul bu yuz ko‘rki ko‘z.
(*Bunga o‘xshatadigan turkcha masal bor,
Bunga moslab shu masalni so‘zladim:
Zakovat ko‘rki so‘zdir, bu tilning ko‘rki so‘zdir,
Kishining ko‘rki yuzdir, bu yuzning ko‘rki ko‘zdir*) [4, 91].

Yusuf Xos Hojib tafakkursiz, behuda so‘zlangan so‘zning zararlari xususida to‘xtaladi. Bunday so‘zlovchi kishilarni johilga qiyoslaydi. Johillar yilqilarga o‘xshatilib, behuda so‘zlar

soʻzlab, semirib yotishlari goʻzal ifodalar bilan ochib beriladi. Dostonda soʻzning, chin soʻzning qiymati ruhni ochiqlantiruvchi malhamga oʻxshatiladi. Inson vujudi ikki butunlikdan: jism va ruhdan iborat. Yusuf Xos Hojib jismni toʻydirish – nafsning vazifasi boʻlsa, ruhni toʻydiruvchi asosiy vosita chin soʻz ekanligini taʼkidlaydi:

Etoʻz ulgi barcha boʻgʻuzdin kirur,
Bu jan ulgi chin soʻz qulaqdin kirur.
(Jism (tana)ning hissasi boʻgʻizdan kiradi,

Jon(ruh)ning hissasi esa chin soʻz boʻlib, u quloqdan kiradi)[4, 91].

Dostonda Oytoʻldidan qanday soʻzlash kerakligi xususida savol soʻraladi. Oytoʻldi shohga soʻzning koʻpi, ozi, meʼyori, badiiy soʻz tabiati, soʻzni bezovchi vositalar borasida goʻzal tavsiyalar beradi:

Bu Aytoʻldi aydi oʻkush soʻz ul-ul,
Aytmadi soʻzlab iriksa koʻngul.
(Oytoʻldi aytdi: Soʻzning koʻp shuldirki,
Soʻramagan soʻzni soʻzlab koʻngulga tegsa).

Bu az soʻz ul-ul kim ayitmihqa oʻz,
Javab bersa soʻzka yanut qilsa soʻz.
(Soʻzning ozi shuldirki, soʻraganga kishi
Javobi bersa, soʻzga teng soʻz bilan javob qilsa).

Mungar mengzatu aydi shaʼir soʻzi,
Tili soʻz bila tuzdi achi yuzi.
(Shoir soʻzini bunga oʻxshatib aytdi,
U tilini soʻz bilan bezadi, yuzini ochdi(yaʼni xushroʻy qildi)).

Soʻzug yaqshi soʻzda ezu saqnu oʻz,
Ayituqta soʻzla yana terkin uz.
(Oʻzing juda oʻylab soʻzni yaxshi soʻzlar,
Soʻraganda soʻzla, yana tezlikda tamom qil).

Oʻkush soʻz eshitgil telim soʻzlama,
Uqush birla soʻzla bilig birla tuz.
(Soʻzni koʻp eshitgin, lekin ortiq soʻzlama,
Idrok bilan soʻzla, bilim bilan andazala).

Natijalar. Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostoni turkiy adabiyotdagi ilk doston boʻlishi bilan birga, doston tarkibidagi toʻrtlik va masnaviyar XI asr adabiyotida takomilda boʻlgan janrlar qonuniyatlari xususida yetarlicha maʼlumot bera oladi. Asar toʻrtliklari turkiy tilli yozma adabiyotdagi *toʻrtlik, ruboiy, tuyuq* janrlarining rivojlanishi va takomillashishi jarayonida oʻziga xos oʻringa ega va maʼlum maʼnoda ularni bu janrlarning

dastlabki namunasi deb yuritish mumkin. “Devon-u lug‘ati-t-turk”dagi to‘rtliklar o‘zida aruz elementlarini singdirgani holda asosan turkiy xalqlar uchun qadimiy hisoblangan barmoq vaznida yozilgan. “Qutadg‘u bilig” to‘rtliklari asarning boshqa janrlari kabi asosan mutaqoribi musammani mahzuf, ba‘zan mutaqoribi musammani maqsur va bir o‘rinda mutaqoribi musammani solim ko‘rinishida yozilgan[3, 307-441].

Xulosa. “Qutadg‘u bilig”dagi to‘rtlik va masnaviyalar “Devon-u lug‘ati-t-turk” turliklaridan farqli o‘laroq XI asr adabiyotida didaktik, pandnoma ruhidagi parchalarning ko‘lami va davr adabiyotidagi o‘rni masalasini o‘zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamroyeva O.J. Adabiyotshunoslik tarixi(O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi) 1-qism. Darslik. -T.: Bookprint, 2026.
2. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-қисм (Тузувчи Н.Раҳмонов) Мажмуа. -Т., 2002.
3. Тўхлиев Б. “Қутадғу билиг”нинг поетикаси масалалари // Ўлмас обидалар (Ўзбекистон халқларининг қадимги ёзма ёдгорликлари бўйича тадқиқотлар). – Т., 1989.
4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов). – Т.: Фан, 1972. – Б. 84.

